

## **XIX ASR BOSHLARIDA O'RTA OSIYODA TARIXIY MANBALAR TARIXSHUNOSLIGI**

**Normurodova Go'zal Xolto'ra qizi**

**Termiz davlat univeristeti magistranti**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6650967>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davriga oid jamiyat taraqqiyotini belgilovchi davlatchilik asoslari mamlakatimiz tarixini o'rganishni yanada chuqurroq ilmiy tahlil etishga imkoniyat yaratmoqda. O'rta Osiyoda Angliya va Rossiya raqobatchiligining tashkil topishi, davlatning ma'muriy-siyosiy tuzilishini aniqlash, millat va milliy urf-odatlarini o'rganish muhim ahamiyat haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar : Chag'oniyon, Hitori Shodmon, Qubodiyon, Balx, Jayhun, Salavot, Qo'ng'iroq, Budrach.

O'rta Osiyoda Angliya va Rossiya raqobatchiligi tarixshunosligiga oid manbalarda iqtisodi siyosati davriga talluqli Shayboniyxon vafotidan so'ng, 1511 yilning yanvar - 1512 yilning fevral oylarida Shayboniy sultonlar Vaxshdagi Puli Sanginda Boburiylar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Buning natijasida Chag'oniyon, Hitori Shodmon va Qubodiyon Boburiylar qo'l ostiga o'tadi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay, 1513 yilda Boburiylar lashkari Shayboniylar sulolasidan bo'lmish Ubaydulloxon tomonidan quvib chiqariladi.

O'rta Osiyoning Balx va Jayhun daryosining o'ng sohilidagi yerlarga XVI asrning 20-yillarida Boburiylar tomonidan doimiy ravishda xavf solib turilgan. Pirmuhammadning amalga oshirgan izchil ichki hamda tashqi siyosati tufayli XVI asrning 40-60-yillarida Termiz va Chag'oniyonda ma'lum bir davr osoyishtalikka erishilgan edi. Ammo Buxoro va Balx o'rtasidagi muhim harbiy istehkom bo'lgan Termiz Shayboniylar va ularning Balxdagi gumashtalari o'rtasida tez-tez yuz beradigan jan-jallar tufayli o'zaro kurash maydoniga aylangan edi. Shayboniylar saltanatining yirik arboblardan biri sanalgan Abdullaxon ham hokimiyatni mustahkamlashda Termizning strategik mavqeiga alohida e'tibor qaratadi. Uning 1572 yil may-iyun oylarida Termizni egallash uchun olib borgan kurashi bunga misol bo'ladi. Hofiz Tanishning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Termiz hokimi etib Abdullaxonning amakivachchasi Mahmud Sulton tayinlangan edi.

O'rta Osiyoning daryo qirg'og'idagi ko'hna Termiz qal'asi o'zbeklar hukmronligi davrida ham mavjud edi. Bu davr haqida Xofiz Tanish Buxoriyning 1572 yili yozilgan «Sharafnoma-i-shohiy» («Podshohni sharaflovchi kitob») asarida Termizning topografik o'rni, shahardagi binolar, osori-atiqalari, xalqning etnik tarkibi xususida ma'lumotlar beradi. O'sha paytda Termiz Abdullaxonning dushmani-Balx hukmdori Dinmuhammadga bo'ysunardi. Abdullaxon Termizni

qamal qilishdan oldin Hakim Termiziy va Abu Bakr Varroq mozorlarining shayxlarini yoniga chorlab, ularni maxsus sovg'alar bilan siylaydi.

O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davriga xos Termiz va uning atrofidagi yerlar XVII asrda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i qo'liga o'tdi. Bu davr haqida balxlik yirik tarixchi Mahmud ibn Vali o'zining «Bahr ul-asror fi manoqib al-ahyor» («Olijanob kishilar haqida sirlar dengizi») asarida Termiz to'rtinchi iqlimdan va Movarounnahrning yirik shaharlaridan biri ekanligini, uning mustahkam devorlari Jayhun qirg'og'ida qad ko'targanligini, darvozasi ham daryo tomonda ekanligini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, shaharda qishloq va mahallalar ko'p bo'lgan. Surxondaryoning shimoliy qirg'og'ida joylashgan, asli nomi Solihobod bo'lib, mahalliy xalq tilida Salavot deb yuritilgan mavze shaharning eng muhim manzillaridan hisoblangan. Salavot XVII asr boshlarida ham mavjud bo'lgan Chingil-ariq (Jingil ariq) qishlog'i bilan yonma-yon joylashgan. Salavot hukmdorning qarorgohi, bozor, madrasa va juma masjidi hamda baland minoralari alohida holda ajralib turgan. Yana Mahmud ibn Valining ta'kidicha, viloyatda bog' va ekinzorlar kam uchraydi, yeri qumloq bo'lganligidan iqlimi issiqdir, bu yerda g'alla va qovun yaxshi yetiladi.

O'z davri siyosiy maydonida yirik mavqe va maqomga ega Abdullaxon 1584 yili Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarni, jumladan Termiz shahrini o'g'li Abdulmo'minga in'om etadi. Buxoro taxtini 1601 yili egallagan Joniy(Ashtaroxoniy)lar Chag'oniyon yurtida o'z hukmronligini o'rnatib, unga Shayboniy Jonibek Sulton avlodi Muhammad Salim Sulton hokim etib tayinlanadi. Termiz hokimi va qal'a kutvoli amir Odilbiy Joniylarga bo'ysunmaslikka harakat qilib qarshilik ko'rsatadi. Boqi Muhammad 1602 yilning bahorida Termiz va Chag'oniyondagi qarshiliklarni bostirib, bu yerlarni Joniylar davlatiga tobe qiladi. Xullas, XVII asrdagi o'zaro urush-janjallar Termizning qadimiy rivoji va mashhurligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Shahar 1646-1647 yillarda hatto Boburiylar ssololasidan bo'lmish hind shahzodasi Avrangzeb tomonidan istilo qilinadi va boshqariladi. Keyinchalik musulmon xind sarkardasi Saodatxon tomonidan Termiz qayta istilo qilinib, talanib, vayron etiladi.

O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davriga oid Ashtarxoniylar davrida o'zbek urug'larining o'zaro raqobati natijasida markazning ta'siri pasayib boradi, alalxusus 1702 yili Ubaydulloxon hukmronligi davrida markaz bilan mahalliy hukmdorlar kurashida Termiz hokimi katta mavqega ega edi. Qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan SHERALIXON o'zining ittifoqchilariga tayanib Ubaydulloxonga bo'ysunmay qo'yadi. SHERALIXONNING niyati Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi o'zaro kurash iskanjasida tanazzulga yuz tutgan Termizni qayta

tiklashga urinib ko'rish edi. Ammo bu urinishlar natija bermagach, Sheralixon o'z mulki doirasida qal'a qurdiradi va unga Sherobod nomini beradi. Ashtarxoni Ubaydulloxon bo'lsa, Muhammad Rahimbiyning maslahati bilan Termiz hokimligiga nayman urug'idan bo'lgan Ne'matullo to'qsaboni tayinlaydi. Sheralixon bu orada Ne'matulloning Termizga kelishini kutmasdan Sherobod qal'asiga ketib qoladi. Ana shu qo'ng'irot urug'ining umumiy yig'ilishida aniq bir fikrga kelisha olmaslik tufayli, bu qavim ahli ikkiga bo'linadi: ularning bir qismi Sheralixonni yoqlab Sherobodga ketishadi, qolganlari o'z joylari Termizda qolishadi.

O'rta Osiyoning Termiz shahri o'z tarixining eng qora kunlarini boshidan kechirayotganda vohada yangi markaz shakllana boshlaydi, keyinchalik O'rta Osiyoning yangi hududiy birligi - Sherobod bekligi tashkil qilinadi. Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Budrach)ning batamom tushkunlikka yuz tutishi oqibatida yangi shahar Qizilsuvning yuqori havzasida Dehi nav (Denov-yangi qishloq) shakllanadi.

Amir Temur vorislari o'rtasidagi o'zaro toju-taxt kurashi, ichki nizolarning jiddiy keskinlashuvi temuriylar saltanatining inqiroziga sabab bo'ldi. Bu esa temuriylarga qarashli yerlarning birin-ketin dashti-qipchoqlik Shayboniyxon tomonidan istilo qilinishiga olib keladi. Muhammad Shayboniyxon 1499 yildan boshlab Movaraunnahr tomonidan jiddiy harakat qila boshlaydi.

O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davriga talluqli XVI asrning o'rtalarida Shayboniylar Termizni istilo qilib, uni Balx hokimligi bo'ysundirilishi natijasida o'zaro urush-janjallar kuchayib, hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Natijada 1572 yil may-iyun oylarida Abdullaxon Termizdagi ichki nizolardan foydalanib, shaharni qamal qilib, shahar mudofaa qal'a devorlariga jiddiy zarar yetkazdi. O'zaro kelishuv suluhiga muvofiq Abdullaxon amravachchasi Maqsud Sulton shaharga hokim etib tayinlandi. Natijada XVII asrda joniylar siyosatiga bo'ysungan Termiz hokimligi Balx viloyatiga qaram bo'lib qoldi. Termizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli xususida XVII Mahmud Ibn Vali o'zining «Bahrur asror» asarida «Termiz Boysun bo'yidagi mustahkam qal'a devori bilan o'rab olingan shahar bo'lib, uning daryoga qaragan tomonidan darvozasi bor. Shahar devorining shimolida Hakim at Termiziy va Shayx Abu Bakr Varroqning mozori joylashgan. Shaharning eng muhim qismi Solihobod (Soliobod deb ham yuritiladi)» bo'lib, bu yerda shahar hokimining qarorgohi, bozor, madrasa va katta Jome' masjidi mavjud. Shaharda eng katta oilaviy sulola Sayyidlar bo'lib, bu davrda Sayyid Xoja Muhammad Shayxuislom Sayyidlar avlodiga boshliq edi» deb yozadi.

O'rta Osiyoning 1587 yilga qadar Termiz Buxoroga bo'ysungan 1601 yilda Buxoro taxtini egallagan Joniy (Ashtarxoniy)ni o'rnatishga kirishganlar. 1601 yil oxiriga kelib, Chag'aniyonda hosi Shodmon va Xuttalon bilan birgalikda hokimiyat Shayboniy Jonibek sulton avlodi Muhammad Salim Sulton qo'liga o'tdi. 1602 yil boshida Termiz hokimi va qal'a qutvoshi Odilboy joniylarga bo'sunmaslikka harakat qilib qarshilik ko'rsatdi. 1602 yil bahorida Boqi muhammad Termiz va Chag'aniyonni joniylar davlatiga tobe qildi.

O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davrida XVII asr o'rtalarida Termiz siyosiy kurashlar nihoyatda kuchaygan davrda katta inqirozni o'z boshidan kechirib, 1646-1647 yillarda Joniylar bilan Boburiy shahzoda Avrangzeb o'rtasida Balx uchun kurash borgan davrda Termiz Saodatxon qo'mondonligidagi hind qo'shinlari tomonidan egallandi.

O'rta Osiyoning XVIII asr boshlarida hukmronlik qilishni davom ettirgan ashtarxoniylar davrida Termiz va uning hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, muhim tarixiy voqealar haqida ikkita asar-«Tazkirai Muqimxon» va «Tarixi Ubaydullaxon» («Ubaydullanoma»)lar muhim ma'lumotlar beradi. Bu ikki asar go'yoki bir-birini to'ldirib keluvchi kitoblardan taasurol qoldiradi. Faqat «Tazkirai Muqimxon»da (1702-1704 yillar) Buxoro va Balx hukmdorlarining Termiz, Hisor va Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi boshqa hududlar uchun bo'lgan kurashlari, jangu-jadallari tasvirga olinsa, «Tarixi Ubaydullanoma»ning ko'lami kengroq bo'lib, 1702 yildan 1711 yillardagi voqealar aks ettirilgan.

Ubaydullaxon otaliq Muhammadrahimbiyning maslahati bilan Hisorga qilgan yurishi natijasiz mag'lubiyat bilan tugab, Muhammadrahimbiy Samarqandga qochdi. Shundan keyin Termizga qarshi uyushtirilgan harbiy yurish ham Muhammadrahimbiy ko'rsatmasi bilan amalga oshirilib, qo'ng'irotlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan ozod etildi. Natijada qo'ng'irotlar Ubaydullaxonga qarshi qo'zg'alon ko'tarib, bunga qarshi Balx shahridan Mahmudbiy qatag'on rahbarligida naymanlar yordamga chaqirilib, qo'ng'irotlar qo'zg'aloni bostirildi. O'rta Osiyoning iqtisodi siyosati davriga oid Ubaydullaxonning shafqatsiz yurishi, xalqqa nisbatan o'tkazgan jazo-qatl siyosatidan norozi bo'lgan xalq tezda qo'zg'alon ko'tarib, amir tarafdorlaridan o'ch oldi. Bunday foydalangan Mahmudbiy qatag'on o'z atrofiga kuch to'plab Balx va Termizni egalladi. Buxoro va uning atrofidagi o'zaro nizo-janjallar, hamda qabila boshliqlarni yana urshga borishga ray'lari yo'qligi tufayli Xon tomonidan tashkil etilgan Mahmudbiy qatag'onga qarshi yurish qarshida to'xtatildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bradovskiy M. Kolonialnoye znachenije nashix Sredneaziatskix vladeniy dlya vnutrennix guberniy. -M., «Nauk» 1891.
2. Berdiyev O.K., Mahmudov X.B. Surxondaryo o'lkasi tabiati. -Termiz., «Jayxun». 1998, 69 b.
3. Berdiyev X.Ermatorov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar -T.1991 y. 70-bet
4. Berdiyev X. Birinchi odam viloyati. -T., «Nur», 1991, 79 b.
5. Validiy Ahmad Zakii. To'g'on. Turkiston masalasi. –Berlin, 1924; Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi. –Vena, 1929; Bugungi Turk eli va Turkiston yangi tarixi., -Istanbul, 1981, 2-nashri. (Prof. B.Qosimov tarjimalari).
6. Golovanov A.A. Krestyanstvo Uzbekistana, evolyusiya sotsialnogo polojeniya (1917-1937 g.g.), -T., «Fan», 1992.
7. Yoriyev B., Mirzayev X. Elparvarlik. Qarshi, (Nasaf), 2007. 58-B.
8. Ziyayev X.Z. O'zbekistonda paxta yakkahokimligi uchun kurash (XIX asrning oxiri XX asr boshlarida.) -T., «O'zbekiston», 1999.